

HALIMA XUDOYBERDIYEVA IJODIDA AYOL OBRAZI VA MILLIY O'ZLIK IFODASI

*Abduvaxidova Roxatoy Xoljigitovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti assistanti*

ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ И НАЦИОНАЛЬНОЕ САМОВЫРАЖЕНИЕ В ТВОРЧЕСТВЕ ХАЛИМА ХУДОЙБЕРДИЕВОЙ

*Абдувахидова Рохатой Хольжигитовна
Ассистент Ташкентского университета прикладных наук
HALIMA KHUDOYBERDIYEVA IN HER WORK
FEMALE IMAGE AND EXPRESSION OF
NATIONAL IDENTITY*

*Abduvakhidova Rokhatoy Kholzhigitovna
Assistant of Tashkent University of Applied Sciences*

Annotatsiya: Halima Xudoyberdiyeva ijodida ayol obrazи va milliy o'zlik ifodasi o'ziga xos yondashuv bilan tasvirlanadi. Shoira o'z asarlarida o'zbek ayolining ruhiyati, or-nomusi va jamiyatdagi o'rni haqida chuqur mulohaza yuritadi. Uning she'riyati milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va zamonaviy ayollik tafakkurini o'zida mujassam etadi. Halima Xudoyberdiyevaning badiiy dunyoqarashi orqali o'zbek milliy o'zligining asriy an'analar va zamonaviy taraqqiyot o'rtasidagi uyg'unligi yorqin namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Halima Xudoyberdiyeva, ayol obrazи, milliy o'zlik, o'zbek adabiyoti, she'riyat.

Аннотация: В творчестве Халимы Худойбердиевой образ женщины и выражение национальной идентичности отражаются с особым художественным подходом. В своих произведениях поэтесса глубоко размышляет о духовности, чести и роли узбекской женщины в обществе. Её поэзия объединяет национальные ценности, историческую память и современное женское мировоззрение. Через художественное мировоззрение Халима Худойбердиевой ярко проявляется гармония между вековыми традициями узбекского народа и современным развитием.

Ключевые слова: Халима Худойбердиева, образ женщины, национальная идентичность, узбекская литература, поэзия.

Annotation: In Halima Khudoyberdiyeva's creative works, the image of women and the expression of national identity are portrayed with a unique artistic approach. The poetess profoundly explores the spirituality, dignity, and social role of Uzbek women. Her poetry intertwines national values, historical memory, and contemporary female perspectives. Through Halima Khudoyberdiyeva's artistic worldview, the harmony between the ancient traditions of the Uzbek nation and modern development is vividly reflected.

Keywords: Halima Khudoyberdiyeva, image of women, national identity, Uzbek literature, poetry.



[sherzodtuychiyev28@gmail.
com](mailto:sherzodtuychiyev28@gmail.com)
[https://orcid.org/0009-
0006-5732-4016](https://orcid.org/0009-0006-5732-4016)

KIRISH. Har bir davr adabiyotda o‘z mohiyati, ma’no-mazmuni, badiiy qiyofasi va estetik ruhiyati bilan o‘ziga xos iz qoldiradi. Har bir zamon o‘z adabiyotini yaratadi va bu adabiyot o‘sha davrning ijtimoiy, madaniy va ruhiy manzarasini aks ettiradi. Hozirgi davr o‘zbek she’riyatni ham adabiyotimiz gulshanida o‘zining salmoqli, o‘ziga xos va muhim o‘rniga ega. Bu davrda yaratilgan asarlar jamiyat hayotidagi o‘zgarishlar, inson tafakkuri va ruhiyatidagi yangilanishlarni o‘zida mujassam etadi.

Bugungi davr she’riyatida o‘zining ta’sirchan, samimiy va betakror she’rlari bilan she’riyat ixlosmandlari qalbidan chuqur o‘rin egallagan iste’dodli shoiramiz Halima Xudoyberdiyeva ijodi alohida e’tiborga loyiqidir. Halima Xudoyberdiyeva o‘z she’rlarida milliy ruh, ayollik hissi, erk va ozodlik g‘oyalari, inson sha’ni va qadr-qimmatini ulug‘lovchi nozik tuyg‘ularni badiiy mahorat bilan ifodalaydi. Uning asarlarida o‘zbek ayolining ruhiyati, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan zamonaviy tafakkuri yorqin namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR TAHЛИLИ VA METODOLOGIYASI. Tadqiqot ishimizda Halima Xudoyberdiyeva ijodini o‘rganish, uning she’riy asarlarida ayol obrazi va milliy o‘zlik ifodasini tahlil qilish, shuningdek, uning o‘zbek she’riyati rivojiga qo‘sghan hissasini ilmiy asosda yoritish maqsad qilingan. Shoiraning badiiy olamidagi nozik tuyg‘ular va milliy g‘urur aks ettirilgan she’rlarini tahlil qilish orqali biz nafaqat adabiyotimizning boyligini, balki xalqimizning ma’naviy dunyosini ham chuqurroq anglaymiz.

Adabiyot insonning ko‘ngil ko‘zini ravshanlashtiruvchi, uning yurakdagagi tuyg‘ularining in’ikosidir. U o‘zi yaralayotgan paytda inson qalbidagi dard-u quvonchi bilan dunyoga keladi. Ustoz Abdulla Qahhor ta’kidlagandek: “Adabiyot ko‘ngil ishi samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi — meva tug‘maydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tug‘adi.” Bu fikrda adabiyotning samimiyatga, ilhom va tuyg‘uga tayanishi, shuningdek, kitobxon bilan haqiqiy bog‘lanishni ta’minlashi lozimligi chuqur ifodalangan.

tuyg‘ularining in’ikosidir. Adabiyot hayotning o‘zidan, inson qalbining dard-u shodligidan, armon u umidlaridan tug‘iladi. U insoniyat ruhiyatining eng nozik pardalariga tegib, uni uyg‘otadi, tozalaydi, ilhomlantiradi. Asl adabiyot hayot va inson haqida chuqur mushohada yuritish, ichki kechinmalarni san’at darajasiga ko‘tarish demakdir.

Adabiyot asari o‘z yaratilish jarayonida inson qalbidagi dard-u quvonch, orzu-umid, armon va shukuhni o‘zida mujassam etib dunyoga keladi. Har bir chinakam asar — bu bir yurakdan boshqasiga yetib boradigan nozik va samimiy ko‘prikdir. Asl adabiy asar o‘quvchining qalbiga singadi, uni o‘ylantiradi, hislantiradi va hayotga, o‘ziga, atrofga boshqacha nazar bilan qarashga undaydi.

Ustoz Abdulla Qahhor bejiz ta’kidlamaganlar: “Adabiyot — ko‘ngil ishi samarasi. Tuyg‘usiz, ilhomsiz yozilgan asar changlanmagan gulga o‘xshaydi — meva tug‘maydi. Ko‘ngil rozi bo‘lgan asargina kitobxonning ko‘ngliga yo‘l topadi, kitobxonning ko‘nglida meva tug‘adi.” Bu fikrda adabiyotning samimiyatga, ilhom va tuyg‘uga tayanishi, shuningdek, kitobxon bilan haqiqiy bog‘lanishni ta’minlashi lozimligi chuqur ifodalangan.

Mana shunday ulug‘ vazifani ado etishda Halima Xudoyberdiyeva kabi shoira va shoirlarimizning roli beqiyosdir.

“U bag‘irdor she’rlari barobarida, hayotda bir ruhoniq iqlim ham yarata olgan ijodkordir. Biz uning mavzusi saflana-saflana, tovlana-tovlana, dam laylivash, dam majnunvash, dam yassaviyona, dam mashrabdekk sollarib hayot, ijod hamda nafosat mintaqalarini adl-dov egallagan asarlar timsolida “Halima Ruhiyati” degan fasona maydonga chiqdi, deb aytolamiz”.¹³⁴

Halima Xudoyberdiyeva ijodida chaqmoq kabi chaqnagan, momaqaldiroqdek gumburlagan, seldek toshib kelgan she’rlar talaygina. Shoira hayotning iztiroblarini, jamiyatdagi o‘zgarish va sinishlarni, millat taqdirini o‘zining kuchli tuyg‘u va badiiy ilhomni bilan teran ifoda eta oldi. Uning she’rlarida hayot voqeligi, inson ruhiyati, xalq taqdiri ham kuchli, jo‘shqin ohangda aks etadi. Biroq Halima Xudoyberdiyevaning ana shunday

¹³³ A. Qahhor. “Yoshlar bilan suhbat” - Toshkent, 1968. - B.140.

¹³⁴ Ibrohim G‘afurov. “Halima ruhoniysi”. “Xalq so‘zi” 2019-y. 22-fevral.

jo'shqin she'rlari orasida, alohida mavqega ega bo'lgan, ayol muhabbatni va uning qudratini, ayolning nozik va samimiyligi qalb egasi ekanligini ko'rsatuvchi she'rlar ham muhim o'rinni egallaydi.

Shoira inson yuragiga yaqin mavzularni ilg'ab olib, ularning yangi-yangi qirralarini ochishga intiladi. Uning she'riy olamida ayol qiyofasi faqatgina mehr va sadoqat timsoli emas, balki kuch va irodaning, sabr-toqat va matonatning ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Halima Xudoyberdiyeva o'z she'rlarida tarix sahifalaridan Nodirabegim, Uvaysiy, To'maris kabi buyuk ayollar siymosini jonlantirib, ularning fazilatlari, jasorati va ruhiy kuchini zamonaviy o'zbek ayolining obraziga singdiradi.

Shoira o'z she'rlarida "Yurak shoirasiman... Ayol muqaddas!" deya e'lon qiladi va ayol sha'nini, qadri va sha'n-shavkati uchun ilhom bilan madhiyalar aytadi. U ayolni ojizlik va befarqlik puchmoqlaridan olib chiqib, uning chinakam hayotbaxsh qudratini, ma'naviy go'zalligini va iroda kuchini yuksak badiiylik bilan tarannum etadi. Ayol obrazini faqatgina nozik va mehribon emas, balki irodali, jasur, hayot sinovlariga bardoshli inson sifatida ko'rsatadi.

*Oshiglaring poyingga gul otib ham bo'ldi,
Xilvatlarda labingdan bol totib ham bo'ldi.
Va bu haqda kimlargadir sotib ham bo'ldi,
Sen baribir muqaddassan, muqaddas ayol.*

Shoira ijodining gultojiga aylangan "Muqaddas ayol" she'ridan olingan yuqoridaq parchani o'qiganda, ta'sirlanmagan, yuragi larzaga kelmagan inson bo'lmasa kerak. Halima Xudoyberdiyevaning bu she'ri o'zining samimiyligi, ilhomning beg'uborligi va badiiy kuchi bilan har bir o'quvchi qalbiga bevosita ta'sir qiladi. Shoira bu asarda ayol siymosini nafaqat ona, muhabbat va sadoqat ramzi sifatida, balki hayotning asosi, hayotbaxsh kuch sifatida ulug'laydi.

Adabiy asarlarning eng ta'sirchanlari, eng go'zallari, eng jozibadorlari ayol qalbiga atalgani, ona mehr-muhabbatini tarannum etgani bejiz emas. Chunki ayol obrazlari orqali insoniyatning eng muqaddas tuyg'ulari — mehr, sadoqat, sabr, fidoyilik va hayotga muhabbat ifoda topadi. Ayol

qalbining nozikligi, uning sezgirligi va mehr-muhabbatga to'la olami badiiy asarlarga ruh, hayot va ilhom baxsh etadi.

Adabiyotdagagi ayollar obrazi millatning fitratiga, uning ma'naviy qadriyatlariga, davr ruhiga muvofiq tarzda aks etadi va idrok qilinadi. Har bir davr, har bir adabiy maktab o'z ayol idealini yaratgan: qadim zamonlarda ayol siymosi mehribon ona, sadoqatli yor sifatida tasvirlangan bo'lsa, yangi davr adabiyotida u faollik, bilimdonlik va mustaqil fikrlash timsoli sifatida gavdalantirilmoqda. Halima Xudoyberdiyeva she'riyatida esa bu qiyofalar uyg'unlashgan holda, zamonaviy va tarixiy qiyofa, orzu va haqiqat mukammal tarzda bir-biriga qo'shilib, o'ziga xos badiiy manzara yaratadi.

Shoira "Muqaddas ayol" she'rida ayolni oddiy bir inson sifatida emas, balki yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan, jamiyat hayotida muhim o'rinni tutuvchi shaxs sifatida ulug'laydi. Bu yondashuv adabiyotimizda ayol obrazining tobora kuchliroq, mustaqilroq va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan qiyofaga aylanganini ko'rsatadi.

Halima Xudoyberdiyeva ijodi orqali biz nafaqat o'zbek ayolining ruhiy dunyosini, balki xalqimizning qadimiy va zamonaviy qadriyatlarini ham chuqur his etamiz. Shoira ayol obraziga hayot va adabiyot qiyofasini bergen, uni zamon ruhi bilan uyg'unlashtirib, abadiylikka daxldor qila olgan.

XULOSA

Halima Xudoyberdiyeva ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida ayol obrazining badiiy talqini va milliy o'zlik ifodasining yorqin namunasi sifatida alohida o'rinni tutadi. Shoira o'z she'riyati orqali nafaqat ayolning nozik qalbini, muhabbat va sadoqatga boy ruhiyatini tarannum etdi, balki ayolning jamiyatdagagi ijtimoiy mavqeい, uning matonati va erkin tafakkurini ulug'ladi. Uning asarlarida ayol obrazlari milliy qadriyatlar va zamon ruhi bilan uyg'unlashib, o'ziga xos badiiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibrohim G'afurov. "Halima ruhoniyati" m. "Xalq so'zi" 2019-y. 22-fevral.
2. A. Qahhor. "Yoshlar bilan suhbat"- Toshkent, 1968.-B.140.